## Endi biz quyidagilarni bilamiz va uddalay olamiz:

insonda beshta: **ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish va ushlab his qilish** kabi sezgi a'zolari borligini;

**ko'zimiz bilan** predmetlarning rangi, shakli, hajmini ko'rish va farqlashni;



**tilimiz orqali** nordon, sho'r, shirin va achchiq ta'mlarni ajratishni;

barcha sezgi a'zolarimiz orqali qabul qilingan ma'lumotlar **miyamiz** yordamida qayta ishlanishini;

**quloqlarimiz orqali** atrofimizdagi tabiat, jonzotlar va turli qurilmalarning tovushlarini eshita olishni.

# II bob
# Ketma-ketlik



# Oldin – keyin







**1.** Savollarga javob bering.

- Qani, ayting-chi, rasmdagi qaysi hodisa oldin sodir bo'ladi?
- Keyin qanday hodisa sodir bo'ladi?
- Oldin va keyin sodir bo'ladigan hodisalar tartibini aniqlang.



CHOP ETISH UCHUN EMAS

**2.** Daraxt unib-o‘sishining turli bosqichlari haqida gapirib bering.





**3.** Rasmlardagi jarayonlarni diqqat bilan kuzating. Hodisalar sodir bo‘lishining to‘g‘ri tartibini aniqlang.



**4.** Harflar o‘rnini almashtirib, so‘zni toping. Uni rasmdan ko‘rsating.

| P | O | K | T | O | K |
|---|---|---|---|---|---|

Dastlab hisob qanday bo‘lgan?

1:1 1:0

